



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИБ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Ganjina Azimova</b> NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
<b>2. Елена Гордеева</b> СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
<b>3. Mohinur Isaqova</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI.....	16
<b>4. Pyos Oqbo‘tayev</b> KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
<b>5. Жамшид Пиримкулов</b> ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
<b>6. Xumora Pozilova</b> TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
<b>7. Murod Raxmatov</b> “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
<b>8. Boburjon Teshaboyev</b> FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
<b>9. Baxtiyor Xalmuratov</b> “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
<b>10. Хулкар Холикулова</b> ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКISTONДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
<b>11. Шахноза Холикулова</b> ЎЗБЕКISTONДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
<b>12. Рашид Холмуродов</b> ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77




UDK 39 395

**Ilyos Ismoilovich Oqbo'tayev,**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
doktoranti  
<https://orcid.org/0009-0004-7269-9989>  
[ilyosokbutaev643@gmail.com](mailto:ilyosokbutaev643@gmail.com)

### KOREYS XALQINING TO'LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI

**For citation:** Ilyas I. Okbotayev. THE KOREAN PEOPLE'S DOLJANCHI CEREMONY AND ITS TRANSFORMATION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17252878>

#### ANNOTATSIYA

Koreys xalqi qadimiy an'analarga boy millatlardan biridir. Ularning hayotida farzand tug'ilishi, ayniqsa birinchi tug'ilgan kun — "To'ljanji" (돌잔치) marosimi alohida o'rin egallaydi. Bu marosim chaqaloq bir yoshga to'lganda o'tkaziladigan bayram bo'lib, qadimda yuqori chaqaloq o'limi ko'rsatkichlari sababli, tirik qolgan bir yoshli bola uchun hayotni nishonlash tarzida paydo bo'lgan. Zamon o'tishi bilan bu an'ana faqat diniy va madaniy ma'no bilan cheklanib qolmay, turli ijtimoiy, iqtisodiy va hattoki tijorat omillarni ham o'z ichiga olgan murakkab madaniy hodisaga aylangan.

Mazkur maqolada To'ljanji marosimining kelib chiqishi, asosiy elementlari va dolzarb o'zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning boshqa mamlakatlardagi bir yosh bayramlari bilan o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot zamonaviy jamiyatda marosimning qanday transformatsiyaga uchrangani ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** to'ljanji tarixi, bir yoshga to'lish, to'ljabi - bola kelajagini bashorat qilish, tug'ilgan kun niyatlari, marosimning zamonaviy ko'rinishi.

---

**Ильяс Исмаилович Окботаев,**  
Докторант Денауского института  
предпринимательства и педагогики  
<https://orcid.org/0009-0004-7269-9989>  
[ilyosokbutaev643@gmail.com](mailto:ilyosokbutaev643@gmail.com)

### ЦЕРЕМОНИЯ ТОЛЧАНДЖИ У КОРЕЙСКОГО НАРОДА И ЕЁ ТРАНСФОРМАЦИЯ

#### АННОТАЦИЯ

Корейский народ — один из народов, богатых древними традициями. В их жизни рождение ребёнка, особенно первый день рождения — церемония «Толчанджи» (돌잔치) — занимает особое место. Этот праздник проводится, когда ребёнку исполняется один год.

Изначально, из-за высокого уровня младенческой смертности, он возник как способ отпраздновать жизнь ребёнка, который дожил до своего первого дня рождения. Со временем эта традиция перестала быть только религиозным и культурным событием, превратившись в сложное культурное явление, включающее различные социальные, экономические и даже коммерческие факторы.

В данной статье анализируются происхождение, основные элементы и актуальные изменения церемонии Толчанджи. Также рассматриваются сходства и различия этого празднования первого дня рождения с аналогичными традициями в других странах. Исследование показывает, как церемония трансформировалась в современном обществе.

**Ключевые слова:** история Тольчанчи, достижение одного года, Тольчаби – предсказание будущего ребёнка, пожелания на день рождения, современный облик церемонии.

**Pyas I. Okbotayev,**

Doctoral student at the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

<https://orcid.org/0009-0004-7269-9989>

ilyosokbutaev643@gmail.com

## THE KOREAN PEOPLE'S DOLJANCHI CEREMONY AND ITS TRANSFORMATION

### ABSTARCT

The Korean people are one of the nations rich in ancient traditions. In their lives, the birth of a child, especially the first birthday — the “Doljanchi” (돌잔치) ceremony — holds a special place. This ceremony is celebrated when the baby turns one year old. Historically, due to high infant mortality rates, it emerged as a way to celebrate the survival of a child who had lived to their first birthday. Over time, this tradition has evolved beyond purely religious and cultural meanings to become a complex cultural phenomenon encompassing various social, economic, and even commercial factors.

This article analyzes the origins, key elements, and recent changes of the Doljanchi ceremony. It also examines the similarities and differences between this first birthday celebration and those in other countries. The study reveals how the ceremony has transformed in contemporary society.

**Index Terms:** history of the Doljanchi, turning one year old, Doljabi – fortune-telling about the child’s future, birthday wishes, modern appearance of the ceremony.

**1. Dolzarbliqi:** “To‘l” yoki birinchi tug‘ilgan kun koreys tilida suyil (晦日), juyil (周日) yoki junyōn (週年) deb ham ataladi[1]. “To‘l” nishonlanishi, bolaning hayotida muhim bosqichni bosib o‘tganini va endi inson sifatida e’tirof etilishini bildiradi. Shu sababli bu kun nafaqat bola, balki butun oila uchun katta quvonch va bayram hisoblanadi. To‘l to‘yida bola uzoq umr ko‘rsin, sog‘lom bo‘lsin va omadli hayot kechirsin degan tilaklar bilan marosim o‘tkaziladi.

“1” raqami ramziy ahamiyatga ega bo‘lishidan tashqari, tarixda chaqaloqlar o‘lim darajasi yuqori bo‘lgani sababli ota-onalar rasmiy tug‘ilganlikni kechiktirishgan va 1 yil tirik qolgan bo‘lsa, endi yashab ketadi deb hisoblab bayram qilishgan.

1950-yillarda Koreyada chaqaloqlar o‘lim darajasi Afrika rivojlanayotgan mamlakatlarnikiga o‘xshash, taxminan 15% edi. Shu sababli, bolalarga uzoq umr tilab, “영(Yeong)” kabi harflarni ismlariga qo‘shishgan (masalan: Yeongsu, Yeongho, Yeongsik). Hozirda bu ko‘rsatkich 0.24% atrofida[2].

**2. Metod va materiallar.** Ushbu maqolada asosiy manbalar sifatida quyidagilar tahlil qilindi:

- ✓ Koreya milliy instituti va tarixiy manbalar;
- ✓ Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan maqolalar;

✓ To'ljanji marosimi bilan bog'liq Koreya va boshqa Osiyo davlatlarining an'analari;  
 ✓ Internetdagi ochiq forumlar va foydalanuvchi fikrlari (jumladan, Asia Economy tomonidan e'lon qilingan tanqidiy maqola).

Tahlil davomida IMRAD talablariga amal qilinib, tarixiy asos, zamonaviy ko'rinish, ijtimoiy baho va munozarali jihatlar o'rganildi. Maqolani yozishda tarixiy-tahliliy, etnografik, taqqoslash hamda madaniy-tahliliy metodlardan foydalanildi.

Maqola yuzasidan tadqiqot olib borilganda koreyslar madaniyati va etnografiyasiga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Etnograf va antropolog izlanuvchi Yun Songjening "Birinchi tug'ilgan kun va "to'l" dasturxonini" maqolasi, Asia Economy jurnalida bosilib chiqqan Ko Gi-jongning "To'yga borib pul berdim, endi bolaga ushlatish uchun ham pul?.. Bu ortiqcha emasmi?" nomli tanqidiy maqolasi, Hyunah Yangning "A Journey of Family Law Reform in Korea: Tradition, Equality, and Social Change" nomli maqolasi, Sam Hyun Yooning "The paradox of change: Religion and fertility decline in South Korea" nomli maqolasi, Youna Kim tomonidan nashr etilgan "The routledge handbook of korean culture and society" nomli maqolalar to'plami, Choe Kilsongning "Community Ritual and Social Structure in Village Korea" maqolasi, Boo Jin Parkning "Patriarchy in Korean Society: Substance and Appearance of Power" nomli maqolasi, Choi Wonsonning "A Study on Modern Transformation of Korean Tradition" nomli maqolasi, Hyun-Seob Chang tomonidan yozilgan "Modernisation and changing family structure in Korea" nomli monografiya, Elena Bujaning "On the changes in the Korean family institution in the past century" nomli monografiyasi, Kim Jisoo Mning "From Jealousy to Violence: Marriage, Family, and Confucian Patriarchy in Fifteenth-Century Korea" maqolalari o'rganildi tahlil qilindi.

**To'l to'yi tarixiy manbalarda.** To'l to'yi qachondan boshlanganini aniq aytish qiyin, lekin ilk yozma manbalar orasida bu haqida eng qadimgi ma'lumot VI asrga oid Xitoy asari — Ansigahun (顏氏家訓)da uchraydi. U yerda quyidagicha yozilgan: "Jiangnan hududida bola bir yoshga to'lganda yangi kiyim tikiladi, bola cho'miladi, bezaklar taqiladi. O'g'il bolaga kamon, o'q, qog'oz va qalam; qiz bolaga pichoq, chizg'ich, igna va ip qo'yiladi. Yana bola oldiga ovqat, qimmatbaho kiyim va o'yinchoqlar qo'yiladi. Bola tanlab olgan narsasiga qarab uning rizqli, halol, olim yoki dono bo'lishi taxmin qilinadi. Bunga bola sinovi deyiladi. Ikkala taraf qarindoshlari yig'ilib, bayram qilishadi."

Bu urf-odat Koreyada ham qadimdan bor bo'lgan. Masalan, 1725-yilga oid xatda, bir otaning bolasining bir yoshga to'lgan kuniga bora olmaganidan pushaymon bo'lib, bola "nima tanladi?" deb so'ragani yozilgan. 1791-yilda esa Qirol Chongjo davrida (15-yil) kelajakdagi Qirol Sunjo o'zining to'l to'yida turli o'yinchoqlar oldida o'tirib, rangli ip, kamon, musiqa asboblarini tanlagani hujjatlarda qayd etilgan. Bu to'l urf-odati hatto qirollik saroyida ham bo'lganini ko'rsatadi.

XVI asrdan boshlab yirik zodagon oilalarda ham to'l haqida yozma manbalar uchraydi. Masalan, Choson davri muallifi Yi Mungon (1494–1567) nabirasi Sukkilning bir yoshga to'lganida to'l marosimi o'tkazganini yozadi [3]. Yana bir muallif O Ximun (1539–1613) ham nabirasi Hyorip tug'ilgan kuni o'yinchoqlardan tanlab olish marosimini o'tkazganini kundaligida qayd etgan[4].

**To'l marosimi va to'l dasturxonini.** To'l marosimida dasturxon ustiga guruch, oq ip (ipdan o'ralgan sharchalar), kitob, qog'oz, qalam, kamon va o'q (yoki qaychi, igna, chizg'ich) qo'yiladi. So'ng bolani paxtali matoga o'tqazib, u xohlagan narsasini olishiga ruxsat beriladi. Bu marosim **to'ljab** deb ataladi.

Bu an'ananing Koreyada aynan qachondan boshlanganini aniqlash qiyin, biroq u XVI asr o'rtalariga borib taqaladi. To'l dasturxonini – bu yuqori qilib taxlanadigan taomlar emas, balki mo'l-ko'l qilib to'ldirilgan, go'zal bezatilgan ovqatlar bilan to'la dasturxondir. Qirollikda bu paekwanban (백완반 – yuz o'yinchoqli likopcha) deb atalgan. Odatda dumaloq, oyoqli likopcha (aylanma dasturxon) ishlatiladi – bu bola yurishni endi boshlayotgan davr bo'lgani uchun, burchaklarga urilib ketmasin degan niyat bilan tanlangan.

Yana bir kichik dasturxon (yordamchi dasturxon)da yangi tayyorlangan oq guruch va dengiz o'ti sho'rvasi (miyokguk) qo'yiladi. Ayrim mintaqalarda yashil sabzavotlar ham qo'yiladi, asosan, selderey (mina-ri) ishlatiladi. Qirollikda mina-rini qizil ip bilan bog'lab qo'yishgan. Mina-ri – nam

yerda tez o'sadigan, yil davomida yashaydigan o'simlik bo'lib, uzoq umr va nasl ko'payishini anglatadi. Shuningdek, xurmo mevasi ham ko'p bo'lib, bu naslning ko'pligiga ishora qiladi.[5]

**To'l ovqatlari.** Chungbuk mintaqasining xalq qo'shig'ida to'l dasturxoniga quyidagi taomlar qo'yilishi aytiladi: baeksolgi (oq bug'langan guruch keki), sorghum va loviyali to'pcha (ssusu-pat-tok) va lag'mon (kukusu). **“Bizning bolamizning to'l to'yida oq bug'langan kek, sorghum-loviya to'pi, va lag'mon qilamiz. Ipak ip, tanga va tangalar bilan, uzoq umr tilaymiz.”**[6]

Bu ovqatlar orasida eng muhim o'rin **tok (kek)**ga tegishli. Oq baeksolgi – poklikni bildiradi, ssusu-pat-tok esa yomonlikni daf qilish, yiqilmay o'sib ulg'ayishini bildiradi. Lag'mon esa uzoq umr tilash ma'nosida tortiladi.

**To'lda tok taomini tarqatish odati.** 1791-yilda bo'lgan to'l to'yida qirollik saroyi bolaga oid to'y bo'lishiga qaramay, **jangchilar, xizmatkorlar, saroy aholisi, va hattoki ko'chadagi oddiy odamlarga** ham tok (kek) ulashgan. Bu tokni tarqatish an'anasida, tok olgan odamlar, uni olgan idishni yuvmay, ichiga kiyim, tanga, uzuk, ip, qoshiq, o'yinchoq yoki boshqa sovg'a solib, javoban qaytarishgan[7]

Ulashilgan narsa javoban biror narsa qaytarish odati ko'p xalqlarda bor. Jumladan, o'zbek xalqida ham. Koreyada biror xursandchilik sababli qo'shnilariga tok taomini ulashishadi va qo'shnilar tok olib chiqilgan idishga biror narsa solib qaytarib berishadi.

Bugungi kunda esa odatda **oltindan tayyorlangan uzuk yoki bilaguzuk** sovg'a qilinadi. Bu an'ana XX asr boshlarida Koreyaga kirib kelgan Xitoy odatlaridan kelib chiqqan. Xitoyda bayramlarda oltin-kumush taqinchoqlar sovg'a qilish odati bo'lib, koreyslar buni to'l to'yida qabul qilib olishgan. 1950-yillarga qadar esa ko'proq mato yoki guruch sovg'a qilingan[8].

Bundan ko'rinib turibdiki Choson davridagi iqtisodiy tang holat, yapon mustamlakachiligi va 50-yillardagi Koreya urushi davrida koreys xalqi boshdan kechirgan ochlik qiyinchiliklari milliy oilaviy marosim bo'lmish To'ljanjiga ham ta'sir etgan. Bu davrda to'yib ovqat yeyish, kiyimining but bo'lishi odamlarning asosiy maqsadi bo'lgan. Bir hovuch guruch topish qiyin bo'lgan davrda bolaga bunday sovg'a qilish oltin va kumushdek qadrliroq bo'lgan.

Tahlil va natijalar

### 1. An'anaviy To'ljanji: Ma'no va tuzilma

An'anaviy To'ljanji marosimi bola bir yoshga to'lganda o'tkaziladi. Marosimning eng muhim qismi — **“To'ljabi”** bo'lib, unda bolaning oldiga turli narsalar qo'yiladi (qalam, pul, ip, mikrofon va boshqalar) va bolaning tanlovi uning kelajakdagi kasbi yoki yo'nalishini ifodalaydi. Bu marosim koreyslar orasida “taqdir bashorati” sifatida muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, marosimda bolaga an'anaviy hanbok kiyiladi, xudolar uchun taom tortiladi, ota-onalar minnatdorchilik bildiradilar. Taomlar tarkibida albatta **miyok sho'rvasi** (suv o'ti sho'rvasi) bo'ladi — bu onaning tug'ruqdagi mashaqqatlarini eslatish uchun tortiladi.

### 2. Zamonaviy o'zgarishlar: Marosimning transformatsiyasi

Bugungi kunga kelib, To'ljanji Koreyada ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan kengaygan marosimga aylandi. Yirik restoranlar, mehmonxonalar va hatto hayvonot bog'lari maxsus To'ljanji xizmatlarini taklif etishmoqda. XXI asrga kelib, **uy hayvonlari uchun ham To'ljanji** o'tkazilishi trendga aylangan. Misol uchun, Everland bog'ida pandalar uchun to'ljanji o'tkazilib, ular ham buyum tanlashgan: Fu Bao — non, Hui Bao — mikrofon va h.k.

Bundan tashqari, To'ljanji sanasi ko'pincha **oy taqvimi** asosida belgilanadi yoki dam olish kunlariga to'g'rilanadi. Harbiy xizmatchilarga hatto farzandining To'ljanji marosimi uchun ikki kunlik ta'til ham beriladi.

To'ljabi marosimi ham yillar davomida o'zgarishlarga uchragan, ya'ni davrga qarab bolaning oldiga qo'yiladigan buyumlar o'zgarib turgan. Masalan, ilgari ip va guruch juda mashhur bo'lgan, chunki uzoq umr va to'q yashash asosiy orzu bo'lgan. Hozir esa mikrofon, sport asboblari kabi “mashhurlik” ramzi bo'lgan narsalar yaqin joyga qo'yiladi, boshqalar esa chetga surib qo'yiladi

Ko'p qo'yiladigan buyumlar va ularning ma'nosi:

Buyum	Ma'nosi
Kitob	O'qimishli, olim yoki yozuvchi bo'ladi. Agar chet tilidagi kitob bo'lsa, chet tillarni yaxshi o'rganadi deb hisoblanadi.
Qalam, ruchka	Ustoz, professor yoki a'lochi bola.
Yozuv ruchkasi va siyoh idishi (kalligrafiya asboblari)	Yozuvchilik, chiroyli yozishga oid kasblar.
Pul, guruch, karta	Boy bo'ladi. Ba'zida xorijiy valyutalar ham qo'yiladi. Xorijiy pul tanlansa – xorijda ishlaydi yoki yaxshi pul topadi deb hisoblanadi.
Xurmo (대추)	Ko'p farzandli bo'ladi.
Ip	Uzoq umr ko'radi. Yaqinda esa, davlat ishida ishlaydigan (barqaror ishli) odam bo'ladi degan ma'no ham berila boshlandi.
Stetoskop, dori, ukol	Shifokor, hamshira, stomatolog kabi tibbiyot sohasidagi kasblar.
Mikrofon	Mashhur odam, jurnalist, aktyor, qo'shiqchi.
Sud bolg'asi (법봉)	Sudya, prokuror, advokat.
Kalkulyator	Moliya sohasidagi mutaxassis.
O'q-yoy, miltiq, politsiya buyumlari	Harbiy yoki politsiyachi.
Sport buyumlari (futbol to'pi, golf to'pi, hokazo)	Sportchi bo'ladi.
Olma	Rizqi mo'l bo'ladi, yaxshi taomlar nasib etadi.
Kompyuter sichqonchasi	IT sohasi mutaxassisi.
Fotoapparat	Kinorejissyor, fotograf yoki ijodiy sohalarida ishlaydi.
Dirijor tayoqchasi	Yetakchilik qiladigan kasblar: prezident, rahbar, biznesmen, harbiy.
Samolyot	Uchuvchi, styuardessa, aviatsiya sohasi.
Baraban, musiqa asboblari	Musiqachi, dizayner, san'at sohasi.

### 3. Ijtimoiy fikrlar va bahslar

To'ljanji marosimi bugungi jamiyatda bahsli mavzuga aylangan. Masalan, Asia Economy tomonidan yoritilgan bir voqeada, To'ljanji marosimi davomida mehmonlardan bolaning "tanlashi" uchun pul yig'ilgan. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi: ayrimlar buni odobsizlik deb qoralagan bo'lsa, boshqalar buni "farzand ta'limiga xayriya" deb ko'rdi. Ushbu voqea zamonaviy To'ljanji marosimi shunchaki madaniy an'ana emas, balki ijtimoiy bosim va iqtisodiy niyatlarning ham aralashuvi bo'lib qolganini ko'rsatadi.

### 4. Xalqaro kontekstda taqqoslash

To'ljanji an'anasi boshqa Osiyo davlatlaridagi urf-odatlar bilan o'xshash hisoblanib quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

**Yaponiya:** "Hatsutanjobi" — bolaga "**Issho-mochi**" degan 1.8 kg guruchdan tayyorlangan guruch keki (mochi) yelkaga osiladi. Bu bola butun umri davomida to'q yashashini tilash ramzi. "To'ljabi"ga o'xshash tadbir "**Erabitore**" deb ataladi (Okinavada "**Tankayue**" deyiladi).

**Xitoy va Tayvan:** “Zhuazhou” — bola bir nechta buyumlardan birini tanlaydi, tanlaganiga qarab bashorat qilinadi. Uzoq umr ramzi sifatida uzun makaron yediriladi.

**Indoneziya:** 7 oylik bo‘lganida "**Tedak Siten**" marosimi o‘tkaziladi. Bola 7 xil don ustida yuradi, shakarqamishdan yasalgan narvondan chiqadi. So‘ng "to‘ljabiga" o‘xshash marosim qilinadi.

**Hindiston:** Bolaga guruch va maysa qo‘yiladi — boylik va sabr belgisi sifatida.

**Musulmon davlatlari,** xususan O‘zbekistonda diniy taomilga ko‘ra aqiqqa marosimi o‘tkaziladi. Jonliq so‘yilib qarindoshlar va qo‘ni-qo‘shnilar mehmon qilinadi. Bu marosimning o‘tkazilishi orqali bolaga ins-u jinning zarar yetkazishi oldi olinadi deb hisoblanadi.

Irlandiya: "Birthday bumps" – bola oyoqlari ushlab, teskari qilib yerga boshini engil uriladi. Har yili 1 martaga ko‘p.

Boshqa Angliya, Kanada va Shotlandiyada ham bu an‘ana mavjud. Bu misollar To‘ljanji kabi marosimlar Osiyo va Yevropa mintaqasida keng tarqalganini va ular orqali jamiyatlar o‘z qadriyatlarini bola tarbiyasiga ko‘chirishga harakat qilishini ko‘rsatadi.

**Munozara.** To‘ljanji o‘zining tarixiy ildizlari va ramziy ma‘nolari bilan muhim madaniy meros bo‘lib qolmoqda. Biroq, bugungi zamonaviy jamiyatda u nafaqat bola uchun marosim, balki ota-onaning ijtimoiy maqomini ko‘rsatish vositasiga aylanishi mumkin. Ko‘p ota-onalar bu marosimni tantanavor, hashamatli tarzda o‘tkazish orqali ijtimoiy tarmoqlarda e‘tibor qozonishga harakat qilmoqda.

Bundan tashqari, mehmonlardan ikki marta pul olish holatlari, marosimni majburiy sovg‘a topshirish tadbiriga aylantirish — To‘ljanji marosimining ijtimoiy bosim vositasiga aylanganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, bu hodisa zamonaviy jamiyatda an‘anaviy marosimlar va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi[9].

**Xulosa.** To‘ljanji — bu faqat bir yoshni nishonlash emas, balki koreys xalqining tarixiy, diniy, ijtimoiy va hatto iqtisodiy qadriyatlarining mujassamidir. Zamonaviy jamiyatda bu marosim transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, uning asosiy g‘oyasi — bola hayoti va kelajagiga bo‘lgan umid va tilaklar — hanuz saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, marosimning tijoratlashuvi va ijtimoiy bosimlar ostida o‘z ma‘nosini yo‘qotib qo‘ymasligi uchun uni yanada ongli va soddaroq shaklda davom ettirish kerak.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

#### 1. 윤성재 - 첫 생일, 돌상 차림

[https://contents.history.go.kr/mobile/km/view.do?levelId=km\\_010\\_0050\\_0020\\_0010](https://contents.history.go.kr/mobile/km/view.do?levelId=km_010_0050_0020_0010)

#### 2. 나무위키(<https://namu.wiki/w/%EB%8F%8C%EC%9E%94%EC%B9%98>).

#### 3. 이문건(李文健), 『양아록(養兒錄)』 임자년(1552) 정월 5 일

#### 4. 오희문(吳希文), 『쇄미록(瑣尾錄)』 무술년(1598) 8 월 18 일

#### 5. 이규숙 구술, 김연옥 편집, 『이 “계동 마님”이 먹은 여든 살』, 뿌리 깊은 나무, 1992, 140 쪽; 이춘자, 『통과 의례와 음식』, 대원사, 1997, 41 쪽]

#### 6. 임동철·서영숙 편, 『충북의 노동요』, 1997, 57 쪽.

#### 7. 강인희.이경복, 앞의 책, 189 쪽]

#### 8. 주영하, 『그림 속의 음식, 음식 속의 역사』, 사계절, 2005, 181~183 쪽]

#### 9. Ko Gi-jong Asia Economy (2024). To‘y sovg‘asidan keyin bolaga pul yig‘ish — bahsli masala. <https://www.asiae.co.kr/article/2024052910500432823>

#### 10. Hyunah Yang “A Journey of Family Law Reform in Korea: Tradition, Equality, and Social Change” Journal of Korean Law | Vol. 8, 77-94, December 2008

#### 11. Sam Hyun Yoon “The paradox of change: Religion and fertility decline in South Korea” DEMOGRAPHIC RESEARCH VOLUME 44, ARTICLE 23, PAGES 537-562

PUBLISHED 19 MARCH 2021 <https://www.demographic-research.org/Volumes/Vol44/23/>

DOI: 10.4054/DemRes.2021.44.23

12. Youna Kim “The routledge handbook of korean culture and society” Routledge handbooks Paris 2016
13. Choe Kilsong “Community Ritual and Social Structure in Village Korea” Keimyung University, Daegu, Korea. Asian Folklore Studies, V o l.41,1982: 39-48
14. Boo Jin Park “Patriarchy in Korean Society: Substance and Appearance of Power” PATRIARCHY IN KOREAN SOCIETY
15. Choi Wonson "A Study on Modern Transformation of Korean Tradition" The Korean Journal of Dance Studies, Vol.86, No.2(2022), pp. 93-106.  
<https://doi.org/10.16877/kjds.86.2.202206.93>
16. Hyun-Seob Chang “Modernisation and changing family structure in Korea” University of Sheffield. July 1993
17. Elena Buja “On the changes in the Korean family institution in the past century” Bulletin of the Transilvania University of Braşov  
Series IV: Philology and Cultural Studies • Vol. 15(64) No. 2 – 2022  
<https://doi.org/10.31926/but.pcs.2022.64.15.2.10>
18. Kim M Jisoo “From Jealousy to Violence: Marriage, Family, and Confucian Patriarchy in Fifteenth-Century Korea” Acta Koreana, Volume 20, Number 1, June 2017, pp. 91-110 (Article)



**Tadqiqot.uz**

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000